

**MUSTAQILLIK DAVRIDA MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYGA  
KO‘RSATILGAN E‘TIBOR**

Dinora Eshboyeva,

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi  
Islomshunoslik yo‘nalishi, 2-bosqich talabasi  
[dinoraeshboyeva23@gmail.com](mailto:dinoraeshboyeva23@gmail.com)

**Annotatsiya:** maqolada mustaqillikka erishganimizdan to hozirgi kungacha bo‘lgan davrda XX asr jadidchilik harakatining yirik namoyandasi Mahmudxo‘ja Behbudiyning xotirasini abadiylashtirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar, ma‘naviy va ma‘rifiy tadbirlar va president qarorlari aks ettirilgan. Shuningdek, Mahmudxo‘ja Behbudi asarlarining nashr ettirilishi va uning hayotini o‘rganish yuzasidan olib borilgan ilmiy faoliyat hamda uning ahamiyati haqida so‘z yuritilgan. Mustaqillik va yoshlarning ilmi bo‘lishi uchun kurashgan Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti va faoliyatini o‘rganish, xotirasini abadiylashtirish orqali nafaqat o‘zbek xalqiga, balki butun dunyoga uchun ham uni tanitish har bir o‘zbek yosh avlodining vazifadir.

**Kalit so‘zlar:** jadid, ilm, ilmiy izlanish, xotirasini abadiylashtirish, maqola, asarlar.

**ATTENTION TO MAHMUDKHOJA BEHBUDI DURING  
INDEPENDENCE OF UZBEKISTAN**

**Annotation:** the article discusses the works, spiritual and educational events, and presidential decisions to perpetuate the memory of Mahmudkhoja Behbudi, a great figure of the 20th century Jadidism movement, from the time we gained independence to the present day. Also, the publication of Mahmudkhoja Behbudi’s works and the scientific activity conducted in connection with the study of his life and its importance were discussed. It is the duty of every young generation of Uzbeks to study the life and work of Mahmudkhoja Behbudi, who fought for independence and the education of young people, and to introduce him not only to the Uzbek people, but also to the whole world by perpetuating his memory.



**Key words:** modernity, knowledge, scientific research, perpetuation of memory, article, works.

XX asr jadidchilik harakatining yirik namoyandasi, publitsist, noshir, “Turkiston jadidlarining otasi” nomiga sazovor bo‘lgan buyuk shaxs, xalqimiz uchun ahamiyatli bo‘lgan ko‘plab asarlar va maqolalar muallifi Mahmudxo‘ja Behbudiy ilm-fan, xalqning ma‘rifatli bo‘lishi uchun, demokratik va farovon davlat barpo etish uchun umri davomida kurash olib bordi. U mustaqil davla barpo etish, avlodlarimiz ozod va erkin yashashlari uchun butun umri davomida harakat qildi. Bu yo‘lda Imom Buxoriyning “Ilmdan o‘zga najot yo‘q” shioriga tayangan holda ularning ilmi bo‘lishi uchun juda ko‘plab asalar ham nashr ettirdi hamda yangi usul maktablariga asos soldi. Ushbu maktablarda o‘quvchilarni tekinga o‘qitdi, ular uchun darsliklar yozib, ularni o‘z yonidan nashr ettirdi. Behbudiyning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi bitta edi, bu ham bo‘lsa millatning ko‘zini ochish, dunyo ahli qanday taraqqiy qilib yashayotgan bo‘lsa, Turkiston ahli ham shunday taraqqiy qilib yashashi edi. Har turli to‘y-marosimlar va ziyofatlarga qilinadigan isroflarning oldini olish kerak degan fikr bo‘lgan va bu fikrni o‘z ilmiy ishlarida ham aks ettirgan. Behbudiy bu maqsadlar yo‘lida o‘z jonini ham ayamadi. Vatani uchun, xalqi uchun bunday ulkan ishlarni qilgan zotning xotirasiga ehtirom ko‘rsatish biz uchun sharaf.

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti o‘rganila boshladi. Sovet mustamlakasi davrida Behbudiy shaxsiyatiga to‘qilgan yolg‘onlar va uning nomiga nisbatan otilgan toshlar 1991-yil mustaqil bo‘lganimizdan so‘ng olib tashlandi va Behbudiyning pok nomi qaytadan tiklandi. Shuningdek, asarlari nashr ettirildi, ayniqsa, “Padarkush” dramasi nashr ettirilib, maktab darsliklariga kiritildi hamda teatr sahnalarida yana sahnalashtirildi. Ushbu drama o‘zbek adabiyotida ilk drama hisoblanadi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Ehtiyoji millat”, “Bayoni haqiqat”, “Yoshlarga murojat”, “Ikki emas, to‘rt til lozim” asalari o‘zbek tiliga tarjima qilindi va nashr ettirildi. Shu bilan birga 1997-yili “Tanlangan asarlar” nashr ettirilib, 1999-yili ikkinchi nashri ham chiqarildi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy xotirasini abadiylashtirish yuzasidan Toshkent va Samarqandda ko‘chalarga uning nomi berilib, Behbudiy nomidagi maktablar ochildi. Toshkent shahridagi Adiblar xiyobonida Mahmudxo‘ja Behbudiyning haykali ham o‘rnatildi, Behbudiy tavalludining 145 yilligi munosabati bilan



uyushtirilgan tadbirda Samarqand shahrida ham Behbudiy haykali o'rnatilishi rejalashtirilayotgani ma'lum qilindi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning hayotini o'rganish va xotirasini abadiylashtirish, yosh avlodga uni tanitish va ibrat namunasi sifatida ko'rsatish borasida ko'plab ishlar amalga oshirildi. Behbudiyning hayoti O'zbekistonda va chet mamlakatlarda o'rganilmoqda va ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, Begali Qosimov, Zaynobidin Abdurashidov, Nilufar Namozova, Ulug'bek Dolimov, Sirojiddin Ahmedov, Naim Karimov, Sherhali Turdiyev, Halim Sayyid, Normurod Avazov, Zebo Ahrorova, Solih Qosimov, Ahmad Aliyev va boshqa olimlar Behbudiy haqida ilmiy ishlar va asalar yozmoqda. "Turkiston jadidchilik harakatining haqiqiy ma'nodagi asoschisi Mahmudxo'ja Behbudiydir", deb yozadi Ulug'bek Dolimov. Ulug'bek Dolimov tomonidan 2010-yilda "Jahon adabiyoti" jurnalida "Jadidchilikning tamal toshi" maqolasi nashr ettiriladi. Ushbu sohada Begali Qosimovning ilmiy izlanishlari ulkan bo'lib, 2002-yilda "Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik" asari, 1994-yilda "Maslakdoshlar" asari va bir qancha maqolalari nashr ettiriladi. Ushbu ilmiy ishlar orqali Behbudiyning hayoti va faoliyati haqida yorqinroq va kengroq ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Begali Qosimov asarlarining ilmiy ahamiyati shundaki, muallif har bir ma'lumotni ishonchli dalil asosida isbotlab beradi. Shuningdek, har bir ma'lumotni taqdim etishda xolis va haqqoniylik asosida yondoshadi. Sirojiddin Ahmedovning ham ilmiy ishlari Behbudiyning hayotini o'rganishda muhim manbalar qatorida turadi. U o'z izlanishlari orqali Behbudiyning tavallud topgan sanasi va joyini aniqlab, 1874-yil 30-yanvar payshanba kuni Samarqand shahri Yomini mahallasida tavallud topgani yozadi. Ammo Behbudiyga zamondosh olim Hoji Muin uning tavallud topgan joyi va sana quyidagicha keltiradi: 1875-yil 19-yanvar (hijriy 1291-yil 10-zulhijja) kuni Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida dunyoga keladi. Begali Qosimov ham yuqorida Hoji Muinning keltirgan faktini keltiradi. Shuningdek, Sirojiddin Ahmedov o'z fikrini kuchli dalillar asosida isbotlaydi[3].

Tojikistonda (R. Xodizoda), Germaniyada (I. Baldauf; Begali Qosimov bilan hamkorlikda), AQShda (E. Olvort, Adib Xolid) va boshqa mamlakatlarda ko'plab olimlar Behbudiyning hayoti va faoliyatiga oida ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda.

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasiga Mahmudxo'ja Behbudiyning hayotini o'rganish va asarlarini xalqimizga yetkazish ishi birlashtirildi. Shuningdek, Behbudiy



faoliyati va ijodiga oid ilmiy ishlar olib brogan, uni keng jamoatchilik e'tiboriga namoyish qilgan talabalarga Mahmudxo'ja Behbudiy nomidagi maxsus stipendiya berilmoqda. Behbudiyning tavallud sanalari har yili ko'tarinki kayfiyatda yurtimizda nishonlanib kelinayapti. Xususan, Alisher Navoiy nomidagi Davlat Akademik katta teatrida ma'rifatparvar alloma va jamoat arbobi Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 145 yilligiga bag'ishlangan tantanali adabiy-badiiy kechaga O'zbekiston Milliy universiteti jurnalistika fakulteti o'zbek fillogiyasi kafedrasida professori, filologiya fanlari doktori Hamidulla Boltaboyev, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori Shahlo Hojiyevlar ishtirok etdi. Tadbirni O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi Sirojiddin Sayyid ochib berdi. Tadbirda Behbudiyning hayoti va ijodiga bag'ishlangan hujjatli film namoyish etildi. Hujjat filmda filologiya fanlari doktori, professor, taniqli adabiyotshunos olim Begali Qosimov ishtiroklari asosida tayyorlangan bo'lib, barchada chuqur taassurot qoldirdi. Undan tashqari taniqli adabiyotshunoslar, shoir va yozuvchilar ishtirok etdi. Taniqli xonanda va sozandalarning kuy – qo'shiqlari tinglandi[6]. Shu yili alloma "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlandi. Shuningdek, Behbudiy tavalludining 146 yilligi munosabati bilan O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida "Mahmudxo'ja Behbudiyning ma'rifatparvarlik faoliyati" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti va faoliyati bugungi kunda ko'plab davlatlarda olimlar tomonidan o'rganilmoqda, buyuk jadid namoyandasining xotirasiga hurmat ko'rsatilib kelinmoqda. Shuningdek, maktablar va ko'chalarga uning nomi berilib, asarlari o'zbek tiliga tarjima qilinmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qosimov B. Maslakdoshlar. – Toshkent: Sharq, 1994.
2. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002.
3. Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va faoliyatining o'rganilishi. "Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari" ilmiy konferensiya– T.: Rishton XTB, 2023.
4. Zaynobidin Abdurashidov. Jadidlar. Mahmudxo'ja Behbudiy. – T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 156 b.
5. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Mahmudxo%CA%BBja\\_Behbudiy#Xotira](https://uz.wikipedia.org/wiki/Mahmudxo%CA%BBja_Behbudiy#Xotira)
6. <https://nuu.uz/ru/behbudiyning-145-yilligi/>

